



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX va JAMIYAT

JOURNAL 2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

O‘ZBEKISTONNING TADRIJIY RIVOJLANISH YO‘LINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Yusupova Shahzoda - JDPU, Tarix fakulteti,

Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va

huquq ta‘limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahar: To‘rayev Abror, falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi rivojlanish yo‘li, davlatchilik va ijtimoiy taraqqiyotda belgilab olingan tamoyillar va ularning tadrijiy takomillashib borishi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqillik, “O‘zbek modeli”, strategiya, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, islohot, rivojlanish, milliy taraqqiyot

Abstract: This article shows the path of development of the Republic of Uzbekistan in the years of independence, the principles of statehood and social development and their gradual improvement.

Key words: independence, "Uzbek model", strategy, action strategy, development strategy, reform, development, national development

Аннотация: В данной статье показан путь развития Республики Узбекистан в годы независимости, принципы государственности и общественного развития и их постепенное совершенствование.

Ключевые слова: независимость, «узбекская модель», стратегия, стратегия действий, стратегия развития, реформа, развитие, национальное развитие.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, barcha davlatlar singari o‘zining rivojlanish yo‘lini tanladi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan taraqqiyotning “O‘zbek modeli” ishlab chiqildi. Mustaqilligini qo‘lga kiritgan O‘zbekiston sovet tuzumi davridagi iqtisodiyot asosini tashkil etgan rejalashtiruvchi siyosatdan voz kechdi va bozor iqtisodiyoti yo‘lini tanladi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, dunyodagi barcha mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Har bir davlat o‘zining tarixiy taraqqiyot an‘analari, milliy o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z yo‘li, o‘z modelini ishlab chiqishi lozim. O‘zbekiston ham ana shu umumiy dastur va qonuniyat mezonlari asosida bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tishga imkoniyat beradigan o‘z yo‘lini tanlab oldi. Islom Karimov ta‘biri bilan aytganda, “Biz mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab, o‘z umrini o‘tab bo‘lgan eski mustabid sovet tizimidan voz kechib, mamlakatimizda

ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga azm-u qaror qildik”.

Manbalar tahlili. Mamlakatimiz istiqboli jamiyatimiz taraqqiyotining siyosiy, ijtimoiy, huquqiy va ma‘naviy sohalarini o‘zida jamlagan hamda zamonaviy rivojlanishning barcha prinsiplarini e‘tiborga olgan holda tarqqiyot modelini yaratilishini obyektiv zarurat qilib qo‘ydi. Shu bilan bir qatorda, yosh mustaqil mamlakatimiz oldida islohotlarning dastlabki bosqichidayoq belgilab olingan bir qator vazifalar taraqqiyotning o‘ziga xos milliy modelini yaratsihni yanada dolzarblashtirdi. Yurtimiz olim va tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan “Fuqarolik jamiyati” nomli qo‘llanmada bu boradagi vazifalar sifatida quyidagilar sanab o‘tiladi:

Ijtimoiy–siyosiy sohada: mamuriy buyruqbozlik, avtoritar tuzum mexanizmi va tuzulmalardan qutilish hamda davlat qurilishining demokratik, huquqiy tamoyil va me‘yorlariga o‘tish, fuqarolik jamiyatiga o‘tishning poydevorini qurish;

Ijtimoiy-iqtisodiy sohada: insonning ishlab chiqarish vositalaridan begonalashuvidan, rejali-taqsimotchilik tizimidan kechish va ko‘p ukladli iqtisodiyotga hamda bozor munosabatlariga o‘tish;

Ma‘muriyat sohasida: aqidabozlik va o‘ta siyosatlashtirilgan mafkura hukmronligidan qutilish, milliy ma‘naviyatni shakllantirish;

Xalqaro munosabatlar sohasida: butun dunyo taraqqiyotidan ajralib qolishdan, o‘zini chetga olishdan va unga qarshi turishdan voz kechish va jahon hamjamiyatiga krib boorish hamda teng huquqli hamkorlikka yo‘l ochish. Islohotlarning mazkur siyosiy yo‘nalishlari orqali Respublikamizda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning murakkabligi va ulkan miqyoslarini tasavvir qilsih mumkin. O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘z xalqi tarixi va uning ongi-ruhiyatidan, aniq sharoitlaridan kelib chiqib tanladi.

O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish yo‘liga doir Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyil quyidagilar edi. Birinchisi-iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, uni mafkuradan holi etish. Bunda iqtisodiyotni mafkuradan holi etish-demokratik va bozor o‘zgarishlarining asosi qilib qo‘yildi. Birinchi navbatda, iqtisodiy negizni barpo etish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yangi jamiyat qurishning eng muhim sharti ekanligi uqtirildi. Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz, o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq ravishda rivojlanishi lozim. Shular orasida eng ahamiyatga molik bo‘lgan jihati bu-O‘zbekistonning mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin o‘zining milliy valutasini qabul qilishdir. Aynan O‘zbekiston mustaqillikka erishgan bo‘lsada, bir necha muddat ham sobiq Ittifoqdan qolgan rubl zonasida bo‘lib turadi. 1992 yildayoq muomalaga chiqarishga mo‘ljallangan so‘m-

kupon tayyorlandi va 1993 yil noyabrda so'm-kupon O'zbekistonda muomalaga kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasining milliy valutasini muomalaga kiritish to'g'risidagi" farmoniga muvofiq 1994 yil 1 iyuldan boshlab Respublika hududida yagona cheklanmagan va qonuniy to'lov vositasi sifatida milliy valuta so'm muomalaga chiqarilgan.

Ikkinchisi-davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o'zgarishlarning tashabbuskori. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor –davlat tomonidan tartibga solib turadigan bozordir. Davlat iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslarini, o'ziga xos "bozor shart-sharoitlari"ni vujudga keltiradi va tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida iqtisodiy erkinliklarning kafolati bo'ladi. Ijtimoiy muammolarni hal qiladi. Davlat bozor institutlarini yaratish uchun qulay sharoit tug'diradi. Vujudga kelayotgan ishbilarmonlik tuzulmalari qaror topishi va rivojlanishiga ko'maklashish–davlatning kuchidir. Aynan iqtisod sohasidagi islohotlar orasida agrar yo'nalishidagi islohotlarni ko'rsatmay iloji yo'q. Shular jumlasidan, 1992 yil O'zbekiston Respublikasi "Dehqon(fermer)xo'jaligi to'g'risida" va 1998yil "O'zbekiston Respublikasi Fermer xo'jaligi to'g'risidagi" Qonunlarning qabul qilinishi va ularga yaratib berilayotgan imkoniyatlar hamda sharoitlar etiborga molikdir.

Uchinchisi-qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning tengligi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni huquqiy ta'minlash ham zarur. Ijtimoiy yo'naltirilgan ma'daniy-ma'rifiy bozor xo'jaligini tegishli ravishda huquqiy jihatdan ta'minlamasdan turib, bunday xo'jalikni shakllantirishni tasavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy yo'naltirilgan qonunchilik asosini yaratish bu faqat o'tish davrining majburiy shartigina bo'lib qolmay, balki huquqiy davlatni barpo etishning o'ziga xos xususiyati hamdir. Qonunlar hayotiy amaliyot bilan o'zaro bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqmog'ikerak. Qonunning ustuvorligi –huquqiy davlatning asosiy prinsipidir, qonun oldida hamma barobardir. Aynan shu 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham barchaning qonun oldida tengligi belgilab qo'yilgan. Qonunlarimiz inson manfaatlarini va ularning huquq-erkinliklarini taminlash uchun ishlashni boshladi. Shu munosabati bilan 2008-yil 1-yanvar kuni mamlakatda o'lim jazosi bekor qilindi. Bularning hammasi esa inson manfaatlarini uchundir.

To'rtinchisi-kuchli ijtimoiy siyosat yurutish, aholining muhtoj tabaqalarinin ijtimoiy himoyalashning ustuvorligi. Kuchli ijtimoiy siyosat–iqtisodiy o'zgarishlarning ishinchli kafolati. Kuchli ijtimoiy siyosat prinsiplari sifatida "Fuqarolik jamiyati" nomli qo'llanmada quyidagilar ko'rsatiladi:
-aholini ish bila ta'minlash va mehnat bozorini takomillashtirish;

- daromad siyosatini yurgizish, pul daromadlari;
- ijtimoiy taminot va ijtimoiy kafolatlar, kam kamtaminlanganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash;
- aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish;
- xalqning moddiy turmush tarzini yaxshilash, har kimning mehnatiga va har kimning qobiliyatiga yarasha prinsipni taminlash.1992-2022 yillar mobaynida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lganlarning ish haqi va pensiyalari, oliy o'quv yurt talabalarining , aspirant va doktorantlarning stependiyalari miqdori bir necha bor oshirildi.

Beshinchi eng so'nggi ustuvor yo'nalish –bu iqtisodiyotga bosqichna – bosqich o'tish tamoyilidir. Bu “shok terapiyasi” yo'lidan tubdan farq qilib,bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishni taqozo etadi.Ya'ni, iqtisodiyotga siyosatda ijtimoiy sohada,ma'naviyatda va boshqa sohalarda islohotlar birdaniga amalga oshirilmasdan bosqichma-bosqich o'tishni ko'zda tutadi.

Mazkur tamoyillar timsolida o'z konseptual zaminlariga ko'ra, O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiy-ijtimoiy sohalarini jumladan, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish borasidagi islohotlarni amlga oshirishning mustahkam poydevori yaratildi.

Bu tamoyillar asosida islohotlar o'tkazilib, o'z vazifasini o'tab bo'lganidan so'ng, Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 7 fevraldagi farmon bilan 2017-2021yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi.Ushbu keng qamrovli strategiyada ham bir necha usuvor vazifalar belgilab olindi. Xususan, birinchi ustuvor yo'nalish bu - davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirishdir. Ushbu yo'nalish bo'yicha quyidagi vazifalar ustuvor qilib belgilandi:

- demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy Majlis,siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish;
- siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamoyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish ,ular o'rtasida sog'lom raqobatni shakllantirish;
- davlat va boshqaruv tizimini isloh qilish;
- jamoatchilik boshqaruv tizimini shakllantirish;
- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;
- ommaviy axborot vasitalarining rolini kuchaytirish,jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish va h.k.

Ikkinchi ustuvor yo'nalish –Qonun ustuvorligini taminlash va sud-huquq tizimini yanda isloh qilish.Bu yo'nalish uchun ham bir nechta vazifalar belgilab olindi:

- sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini taminlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish;
- sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishi kafolatlarini taminlash;
- fuqarolarning odil sudlovga to'sqinliqsiz erishuvini taminlash;
- mamuriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish;
- elektron tartibda sud va ijrob ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etish;
- jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish;
- sud-huquq tizimida qonuniylikni yanada mustahkamlash;
- yuridik yordam va xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va h.k

Uchinchi ustuvor yo'nalish–iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish. Bu boradagi vazifalar quyidagilar edi:

- makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish suratlarini saqlab qolish;
- qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish;
- viloyat,tuman va shahrlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish,ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish va h.k

To'rtinchi ustuvor yo'nalish-ijtimoiy sohani rivojlantirish. Bu yo'nalish bo'yicha quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan edi:

- aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish;
- aholini ijtimoiy himoyalash va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish,xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish;
- talim va fan sohasini rivojlantirish;
- yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish va h.k

Beshinchi ustuvor yo'nalish-xavfsizlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik,o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat.Ushbu ustuvor yo'nalish bo'yicha ham qolganlari singari bir nechta vazifalar belgilab olingan:

- favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish;
- chuqur o'ylangan,o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- davlat chegarasini delimitatsiya va demorkatsiya qilish masalalarini hal etish;
- fuqarolik,millatlararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash va shu kabilardir.

O'tgan yillar mobaynida davlatimiz taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan strategik vazifalar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Ammo bugungi

globalashuv davridagi zamonaviy chaqiriqlar davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi yangi vazifalarni belgilab olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan 2022 yil 28yanvar kuni 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi va bunda quyidagi ettitata yo'nalishdagi yuzta maqsadlar ilgari surildi. Asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustunligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yuqori o'sish suratlari taminlash;
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
5. Manaviy taraqqiyotni taminlash va sohani yanggi bosqichga olib chiqish;
6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish ,ochiq pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, rivojlanish bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlaridan oldinlab bormoqda. Aynan har bir olib borilayotgan ishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va qonunosti hujjatlarning barchasi fuqarolar shuningdek, biz yoshlar uchun berilayotgan imkoniyatdir. Barchasi xalqning manfaatlari va orzu-umidlarini amalga oshirish uchun qilingan, qilinayotgan va qilinishi ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar say-harakatlar natijasidir. Ozmi-ko'pmi islohotlar natijasida O'zbekiston rivojlanib borayotgan mamlakatlar qatoriga kirib bormoqda.